

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiya Respublikasi milliy mudofaa vaziri, armiya generali Hulusi Akarni qabul qildi



27-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi milliy mudofaa vaziri Hulusi Akarni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni samimiyl qutlar ekan, ko?p asrlik do?stlik va birodarlik rishtalariga asoslangan hamda keyingi uch yilda birgalikdagi sa?y-harakatlar bilan sifat jihatidan yangi bosqichga ko?tariqgan O'zbekiston-Turkiya strategik sheriklik munosabatlari har tomonlama jadal rivojlanib borayotganini mammnuniyat bilan qayd etdi.

Hulusi Akar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga samimiyl qabul uchun minnatdorlik bildirib, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdoganning ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o?rtasidagi harbiy va harbiy-texnik hamkorlik holati va istiqbollari ko?rib chiqildi, shuningdek, keyingi yillarda mudofaa sohasida amalga oshirilgan qo?shma tadbirlar yakunlari sarhisob qilindi.

O'zbekiston va Turkiya mudofaa idoralari o?rtasida o?rnatalayotgan amaliy hamkorlikning muhim yo?nalishlari sifatida harbiy kadrlarni o?qitish bo?yicha dasturlarni amalga oshirish, ixtisoslashtirilgan oliy ta?lim muassasalari o?rtasida aloqalarni yo?lga qo?yish, qo?shin bo?linmalarini tayyorlash bo?yicha tajriba almashish belgilandi.

Mintaqadagi zamonaviy xatarlar va xavfsizlikka tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turkiya milliy mudofaa vaziri harbiy va harbiy-texnik sohalarda keng ko?lamli hamkorlikka tayyor ekanini ta?kidladi.

[**O'zA**](#)